

OLIV TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING MADANIYAT KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING MOHIYATI

Usmanova Feruza Saidaxmadovna

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalari talabalarida rivojlantirish talab etilayotgan madaniyat kompetentligining vazifasi, ya'ni, madaniyat mohiyatini, uning axloqiy maqomini anglab yetish, shuningdek, madaniy faoliyatga, qadriyatlarga, madaniyatning muayyan jihatlariga reduksiya qilish masalalari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: madaniyat kompetentligi, qadriyat, yoshlarni tarbiyalash, ma'rifatli inson, tafakkur.

Respublikamizda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini rivojlantirish uchun, avvalo, uning quruvchilari hisoblangan yosh avlodni har tomonlama kamol toptirish, ayniqsa, ma'naviy-madaniy tarbiyasiga alohida e'tibor qaratish lozim. Darhaqiqat, talaba-yoshlarning ma'naviy-madaniy tarbiyasi muammosi, barkamol avlod tarbiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida mustaqil mamlakat pedagogikasida alohida e'tiborga loyiq.

Zero, mustaqil Respublika oliy ta'lim muassasalari talabalarida madaniyati, ma'rifati, tafakkuri, his-tuyg'usini shakllantirish - bu o'zbek xalqining mentaliteti, insoniy axloq va huquq qoidalari asosida fuqaro qadr - qiymatini ulug'lash, mustaqillik dunyoqarashiga ega bo'lgan yangi insonlarni voyaga yetkazishning ham ta'sirchan vositasi bo'lib xizmat qilishi tabiiy hol.

Madaniyat kompetentligi o'zaro tushunish, muloqot masalalarini muvaffaqiyatli yechishga yordam beradigan muloqot vositalari va shaxslararo o'zaro ta'siri qonuniyatlari sohasida bilim va ko'nikmalarning yig'indisi ta'rifidan kelib chiqib, bizlar madaniyat kompetentligini strukturasi taklif qilib, u o'z ichiga ko'nikmalar, faoliyat, til va nutqni oladi va kommunikativ madaniyatni mutaxassisning kasbiy ahamiyatli jihati sifatida, uning hamkorlik aloqalarini o'rnatilishiga, muammoni konstruktiv yecha olish vositasi sifatida ko'rsatish imkonini beradi.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarida rivojlantirish talab etilayotgan madaniyat kompetentligining ikki asosiy vazifasi, ya'ni, madaniyat mohiyatini, uning axloqiy maqomini anglab yetish, shuningdek, madaniy faoliyatga, qadriyatlarga, madaniyatning muayyan jihatlariga reduksiya qilish hisoblanadi.

Talabalarda madaniyat kompetentligining mavjud holatlarini rivojlantirish muhim omillardan biri sifatida qaralishi yetakchi funktsiyalardan sanaladi. Bizga yaxshi ma'lumki, bir qator pedagog olimlar bo'lajak o'qituvchilarning madaniyat kompetentligiga oid muammolarini quyidagi omillar orqali o'rganib chiqqanligini ko'rishimiz mumkin:

- madaniyat mohiyati to'g'risidagi masalalar;
- oliy pedagogik ta'limda talabalarning madaniyat kompetentligini rivojlantirish borasidagi masalalar;
- kompetentlik va muloqot toifalarining o'zaro bog'liqligi masalasi.

Madaniyat kompetentligi – insonning ma'naviy xususiyat va xislatlari, jamiyatning madaniy darajasini aks ettiruvchi tushunchadir. Shuningdek, mazkur atama jamiyat va o'z-o'zini tarbiyalash jarayoni, shaxsning xatti-harakatlari va qiyofasida ma'naviyat tamoyillari qanchalik chuqur singib ketganligini namoyon etadi. Madaniyat kompetentligi "moddiy madaniyat" tushunchasidan farq

qiladi, ammo u bilan bog'liq va o'zaro aloqada namoyon bo'ladi. Agar ma'naviyat tushunchasi barcha ma'naviy narsalar va xususiyatlarni – insoniyatning ijodiy, ilmiy, falsafiy, huquqiy, badiiy, diniy, axloqiy va shu kabi tasavvurlari, tushunchalari majmuini anglatasa, madaniyat kompetentligi esa, ana shu tushuncha, bilim va tajribalarning kundalik hayotda qo'llanilishini o'zida ifoda etadi. Shaxs xatti-harakatlarida namoyon bo'luvchi madaniyat kompetentligini o'ta murakkab tuzilishga ega dasturga o'xshatish mumkin, ya'ni inson turli vaziyatlarda o'zining ma'naviy jihatdan qanday tutishi kerakligi borasida ko'maklashuvchi tajribalarni singdiradi. Shuningdek, madaniyat kompetentligi kishining harakatlari, voqelikni baholay olish salohiyati, axloqiy bilim va tajribalari, ulardan foydalani bilish qobiliyati, yaxshiyomon, ijobiy-salbiy vaziyatlarni farqlash kabi omillar bilan bog'liq ekan, bo'lajak o'qituvchilarda madaniyat kompetentligini shakllantirishning yaxlit pedagogik tizimini ishlab chiqish o'zida muhim muammoni aks ettiradi [2].

Madaniyat kompetentsiyasi talabalarda kamtarlik, halollik, rostgo'ylik, saxovatpeshalik, insonparvarlik, yaxshilik, saxiylik kabi insoniy fazilatlariga ega bo'lish, axloqiy qoidalarga to'la amal qilish, o'z millati hamda boshqa xalqlarni hurmat qilishni o'zlashtirishdan iborat[4].

Madaniyat kompetentligini rivojlantirishda quyidagi tamoyillarga asoslanishi lozim:

- yaxlit yondashuv – talabalarni psixologik, ijtimoiy va ma'naviy anglash va o'z-o'zini anglash, ratsional va irratsional birlik sifatida tushunish;
- talabalarga pedagogik qo'llab-quvvatlashga ehtiyoj sezuvchi, individual munosabatda bo'lishni talab etuvchi shaxs deb qarash;
- bunda yuksak ijtimoiy qadriyatlarining inson shaxsini rivojlantirishdagi o'rni, har bir talabaning individualligi va takrorlanmas ekanligi hurmat qilinishi;
- talabalarning ijtimoiy huquq va erkinliklari e'tirof etilishi;
- tarbiya maqsadi, ob'ekti, sub'ekti, samaradorligi ko'rsatkichlari va natijalari talabaning shaxsiyatida namoyon bo'lishi;
- talabalarga ushbu jarayondagi asosiy sub'ekt deb qaralishi;
- tarbiyaviy faoliyatda pedagogik va psixologik bilimlarga tayanilishi lozim [1].

Xulosa qilib aytganda, shaxsning individual xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan yuqoridagiday ma'naviy, aqliy jarayonlar faqat ma'lum bir xalqqa xos milliy xususiyat emas, balki universal xususiyatdir. Ammo madaniy kompetentsiyalarning har bir xalqda alohida, o'ziga xos xususiyati ham borki, bu xususiyatlar boshqa xalq uchun g'ayritabiiy tuyulishi mumkin. Masalan, tarbiyalilik umumiy xususiyat sifatida muomala va nutq jarayonida hosil bo'lsa, tarbiyalilikning turli xalqlarda ayrim ko'rinishlari borki, bunday holda milliy xususiyatlarni e'tiborga olish kerak.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, "Madaniyat kompetentsiyasi" termini ikki ma'noda – tor va keng ma'noda qo'llanilishini anglash mumkin.

Keng ma'noda – hayotiy talab va ehtiyojlar tufayli jamiyatda mustaqam o'rnashgan urf-odatlar, ijtimoiy institutlar, shuningdek, davlat va iqtisod ham madaniyatga taaalluqli deb hisoblanadi. Tor ma'noda madaniyatning chegaralari ma'naviy ijod, san'at, axloq, shaxsiy aqliy faoliyat chegaralari bilan tutashadi [3].

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir.- Toshkent, "O'zbekiston", 2018 y. , 490.
2. Xo'jaev B. Jamiyatni demokratiyalashtirish sharoitida o'quvchi-yoshlarda fuqarolik madaniyatini rivojlantirish // Pedagogik mahorat.-Buxoro, 2017, №3, 7-13 b.
3. Z. Salieva. Talabalarda ma'naviy madaniyatni rivojlantirish texnologiyalari. –T.: «Fan va texnologiya», 2016, 172 bet.
4. Otamurotov S. Otamurotov S. O'zbekistonda ma'naviy-ruhiy tiklanish. – T., 2003. – B.178.